

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALINI O'QITISH METODIKASI**

**Shamsutdinova Barno Obidjonovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*10-umumiy o'rta ta'lif maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geometrik materialni o'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'quv-metodik kompleksi yaratilishi, geometrik materialni o'qitish vositalari orasida geometrik topshiriqlar yozilgan kartochkalar muhim o'rinni tutishi va geometrik shakllar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** geometrik shakllar, matematika, didaktik ta'minot, geometrik figuralar, plakatlar, hisoblash.

Geometriyaga oid bilimlarni o'qitishda, mustahkamlash va olingan bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilish uchun kerakli barcha ta'lif vositalari darsning didaktik ta'minoti deyiladi.

Didaktik ta'minot tarkibida darslik va bosma asosli daftardan tashqari ko'rgazmali qurollar (geometrik figuralarining modellari, geometrik figuralarining rasmlari, qismlarga ajaratilgan geometrik figuralar tasvirlangan plakatlar), tarqatma materiallar (o'chash, hisoblash ishlarini bajarishga oid geometrik figuralar modellari yoki ular tasvirlangan kartochkalar, testlar, geometrik masala yozilgan kartochkalar) nazorat qilish uchun kerakli materiallar (amaliy ishlar, testlar, diktantlar mustaqil ishlar, dars ishlanmalari, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar)

Geometrik materialni o'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'quv-metodik kompleksi yaratiladi. Bu kompleksi tarkibida darslik va bosma asosli daftardan tashqari, matematikadan topshiriqlar yozilgan kartochkalar, o'qituvchilarga mo'ljallangan metodik tavsiyalar va ko'rsatmalar va boshqalar kiradi. Geometrik materialni o'qitish vositalari orasida geometrik topshiriqlar yozilgan kartochkalar muhim o'rinni tutadi. Bular darsliklarga qo'shimcha tariqasida nashr qilinadi. Ularning asosiy maqsadi individual topshiriqlar bo'yicha bolalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda, programmaning asosiy materiallarini puxta o'zlashtirishda o'qituvchiga yordam berishdan iborat. Shunday qilib, kartochkalar darsliklarni mashqlar bilan to'ldirishgagina mo'ljallangan bo'lmay, balki bolalarning, darslikka yuklab bo'lmaydigan, mustaqil o'quv faoliyatlarini boshqarishning bir qator funksiyalarini ham bajaradi. Kartochkalardan har xil foydalanish mumkin. Masalan, ularidan o'qituvchi mustaqil va nazorat ishlarni o'tkazishda, o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni to'ldirishda, frontal, gruppaviy va individual ishlarni tashkil qilishda, bilimlarni umumlashtirish va sistemaga solishda, bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni hisobga olish va nazorat qilishda foydalanishi mumkin.

Ko'rsatmalilikning boshlang'ich ta'limgangi roli o'quvchilarning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko'rsatmalilikdan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning e'tiborini, diqqatini qo'zg'atadi, o'rganilayotgan materialni puxtarloq o'zlashtirish imkonini beradi, o'quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtini tejash imkonini beradi.

Geometrik figuralar modeli «Demonstratsionniy material po matematike dlya I klassa» (muallif M. I. Moro) komplektida, shuningdek, o'quv sanoati tomonidan chiqarilgan matematik jamlanmalar tarkibida mavjud. Geometrik material boshlang'ich sinf matematika dasturida katta o'rinni oladi. Ko'pchilik hollarda bu material arifmetik material bilan uzviy bog'lanadi. Shu bilan birga geometriya elementlarini o'rganishga ilgariga qaraganda ko'proq mustaqillik beriladi va maqsadga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materialni o'rgatishning asosiy maqsadi geometrik figuralar (nuqta, burchak, to'g'ri va egri chiziq, ko'pburchak, aylana va doira) haqida, ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementlari orasidagi munosabatlari haqida, ularning ba'zi xossalari haqidagi tasavvurlarning to'la sistemasini tarkib toptirishdan iborat.

Bunda o'quvchilarda nuqta, to'g'ri chiziq, tog'ri chiziq kesmasi, siniq chiziq kesmasi, siniq chiziq, burchak, ko'pburchak, doira kabi figuralar to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalar va tasavvurlarni puxta shakllantiriladi.

Geometrik mazmunli masalalar va mashqlar tizimi hamda ular ustida ishlash metodikasi bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish, taqqoslash, abstraktlash va umumlashtirish uquvlarini rivojlantirishga yordam berishi lozim.

O'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda geometrik figuralarini o'lchov va chizma asboblari yordamida va bu asboblarning yordamisiz o'lchash va yasashlarning amaliy malakalarini (ko'zda chamalash, qo'lda chizish va h.k.) tarkib toptirishdir. O'quvchilarning nutq va fikrlashlari shu asosda tarkib rivojlantiriladi.

Geometrik materialni o'rganish vazifalarini nazarda tutib, materialni o'rganayotganda turli ko'rsatma qo'llanmalardan keng foydalaniladi. Bular jumlasiga geometrik figuralarning rangli karta yoki qalin qog'ozdan tayyorlangan sinf ko'rgazmali modellari, figuralar, turli shakldagi jismlar, shuningdek geometrik figuralar tasvirlangan plakatlar, doskadagi chizmalar, diafilmlar kiradi. Bundan tashqari individual ko'rsatma qo'llanmalar bo'lgan qog'oz poloskalar, turli uzunlikdagi cho'plar, qog'ozdan qirqilgan figuralar va ularning bo'laklari kabi tarqatiladigan material talab etiladi. Ayrim mavzularni o'rganishda o'quvchilar bilan birgalikda qo'lda ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash foydali, bular to'g'ri burchak modeli, ko'pburchaklar modellari (shu jumladan to'g'ri to'rtburchaklar va kvadratlar ham) va boshqa narsalardan iborat. Doskada chizmalarni bajarish uchun chizmachilik o'lchash asboblari majmui: chizg'ich, chizmachilik sirkuli, albatta, sinfda mavjud bo'lishi kerak. Shunday asboblar har bir o'quvchida ham bo'lishi kerak.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish, befarq qaramasligini ta'minlash har bir bugungi kun pedagogining vazifasi hisoblanadi. Matematika fanida to'rt amalning bajarilishini o'rgatish bilan birga shakllar, ular tuzilishi, farqini va o'lchamini o'rgatish zaruriyati ham ahamiyatga ega. Bu geometriya fanining ilk tushunchalari hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli nihoyatda kattadir.

Geometriya turli shakllarning xossalarni aniqlash, tekshirish, ularni uzunliklari, yuzi, hajmlarini hisoblash bilan shug'ullanadi. Geometriya material dasturda mustaqil bo'lim sifatida o'qitish jarayonida ajratib ko'rsatilmaydi. Geometrik mazmunli masalalarni imkon bo'lgan vaqtda, kursning boshqa masalalari bilan yaqin aloqada doima qarab chiqiladi. Biroq dasturdagi tushuntirish xatida ko'rsatilganidek, geometrik masalalarni bayon qilishda bu materialni kurs materialiga kiritish maqsadlariga bo'yundirilgan shaxsiy mantiqqa ham rioya qilish kerak. Bu maqsadlar dastavval bolalarning fazoviy tasavvurlarini o'stirishda, ularda turlicha geometrik figura haqida tasavvur qilishdan iborat. Bolalar bu figuralarning har biri alohida turganda ham, tanish figura boshqa figuraning qismini tashkil etganda ham ularni taniy olishlari, berilgan bir necha figuradan boshqa figura yasashni o'rganishlari kerak.

Geometrik material bilan tanishishda o'lchamlarga ancha katta o'rinn beriladi, bolalar kesmaning uzunligini, berilgan ko'pburchakning perimetrini, to'g'ri to'rburchakning yuzini topishni bilishlari kerak.

Bunda tushunchalar ta'riflari bolalarga aytilmaydi. Shu bilan birga bir qator tushunchalarga nisbatan shu tushunchalarning mazmunini bevosita aks ettiruvchi belgilar ko'rsatiladi va yaqin jinsdosh tushunchalarga tegishli figuralar sinfidan tegishli figuralarni ajratish imkonи beriladi. Bolalar turli xil figuralarni tanib olishida, sinflarga ajratishda tegishli belgilardan foydalanishlari kerak.

#### **ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Toshpulatov, D., Nosirov, B., & Khalmatov, T. (2021). Gradual Implementation of Smart Management Principles in The Higher Education System of Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(1). 22-29.
2. PA Xakimov, DS Toshpo'latov. (2021). Blended learning asosida o'quv jarayonini tashkil etish masalalariga doir. Academic research in educational sciences, 2(4). 209-215.
5. Мамажонов, А. Т. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ МАРЖИНАЛЬНОГО АНАЛИЗА В ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ. Models and methods in modern science, 1(10), 4-8.
6. Мамажонов, А. Т., & Қодиров, Ш. Қ. (2022). ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР СОҲАСИДАГИ ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР: КЕЙС-СТАДИ. Academic research in modern science, 1(10), 4-7.

Мамажонов, А. Т., Юлдашев, Б., & Фозилжонов, И. С. (2016). ВЗАИМОСВЯЗЬ  
БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И ЭКОНОМИКИ ПРЕДПРИЯТИЯ. ИННОВ